

bilan adabiyotshunoslik filologiya fanining ikki asosiy sohasi bo'lsa, badiiy til shu ikkala sohaga ham ozuqa beradigan, ularni tubdan birlashtirib turadigan umumiy ildizdir.

Lekin shunday bo'lsa-da, adabiyotshunoslik stilistikasi va tilshunoslik stilistikasining tadqiqot doirasida kuzatiladi. Badiiy asar tilining lingvistik tahlilida ham yozuvchining muayyan til birliklaridan foydalanib, qanday ma'noni yuzaga chiqarishi o'z-o'zidan e'tiborga olinadi. Faqat bunda o'sha til elemenlarining kelib chiqish faktiga chuqurroq yondashiladi. Shuning uchun biz yozuvchi uslubini yuzaga chiqaruvchi omillar xususidagi masalaga lingvistik aspektda yondashishni o'rinli deb topdik. Shu o'rinda o'rni bilan adabiy tahlilga ham murojaat qilinadi. O'zbek adabiy tilining rivojlanishi, umummilliy adabiy til darajasiga ko'tarilishida badiiy adabiyotning o'rni beqiyosdir. Shunday ekan, bugungi davr adabiyotiga o'z hissasini qo'shayotgan ijodkorlar asarlarining tili va uslubini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Shu maqsadda yozuvchi X.To'xtaboyev asarlarining o'ziga xos uslubiy jihatlarni o'rganishga ahd qildik. X. To'xtaboyev asarlarida juft, takroriy va qo'shma so'zlar qo'llanilgan. Ayniqsa, juft va takroriy so'zlar soni behisob. Farg'ona shevasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu juft va takroriy so'zlarning nutqda ko'p ishlatilishidadir deb o'ylaymiz. Darhaqiqat, adib asarlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bitta gapning o'zida 3 ta hatto 4 tagacha juft va takroriy so'zlar ishlatilgan. Juft so'zlar ma'nosiga ko'ra sinonim, antonim sifatida kelsa, grammatik xususiyati bo'yicha ot, son, sifat, olmosh, ravish kabi so'z turkumiga xos so'zlardan unumli foydalangan.

X.To'xtaboyev asarlarida qo'shma so'zlarning qo'llanishi ham o'ziga xos uslubdan foydalanadi. U Andijon, Farg'ona shevalaridan so'zlashuv uslubiga doir, iste'mol doirasi keng bo'lmagan so'zlardan unumli foydalanadi. Bu esa adib asarlarining badiiy qimmatini yanada oshiradi. Masalan: savacho'p, moshbirinch so'zlari Andijon va Farg'ona viloyati tumanlarida ishlatiladi. Sholipoya, sochpopuk so'zlari esa Farg'ona vodiysi dialektlarida bugungi kunda ham keng iste'molda. X.To'xtaboyev asarlarida bundan yaxshi foydalanadi. Quyida berilgan gaplarda qo'shma so'zlar mavjud. Berilgan gaplarning tahliliga e'tibor qilamiz: 1. Tollarning ko'm-ko'k sochlari (sochpopuklari) qizlarning mayda o'rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi. Bu gapda sochpopuklari so'zi qo'shma so'z, qo'shma ot, nimalari? So'rog'iga javob bo'ladi, bosh shakli soch, bosh kelishikda, ega, ko'plik, turdosh ot, III shaxsda. 2. Qog'ozlarni o'qib bo'lganidan keyin advokatning cho'ziq yuzlariga bir kulgi yoyildi, uning moshbirinch mo'ylovlarini ikki tomonga kirib borgan bu kulishida chinakam otaning boladan kulganiga o'xshagan bir narsa bor edi. Bu gapda moshbirinch – qo'shma so'z, qo'shma sifat, qanday? So'rog'iga javob bo'ladi, mo'ylov so'zi bilan bog'langan, aniqlovchi, oddiy daraja. 3. Oldinda past bo'yli, dum-dumaloq, ko'zoynak taqqan ellik yoshlardagi bir shoir, uning orqasidan qotmadan kelgan, sochlari oq oralab qolgan cho'ziq yuzli yana bir shoir. Bu gapda ko'zoynak qo'shma so'z, qo'shma ot, nima? So'rog'iga javob bo'ladi, bosh shakli ko'z– ot, oynak – ot so'zi bilan bog'langan, bosh kelishikda, ega, turdosh ot, birlikda III shaxsda. 4. Daraxtga chiqib, joylashibroq o'tirib oldim. Olako'z oyog'ini silkitasilkita tushuntira ketdi. Bu gapda Olako'z – qo'shma so'z, qo'shma ot, nima so'rog'iga javob bo'ladi, bosh shakli ol –sifat, ko'z – ot bilan bog'langan,

bosh kelishikda, atoqli (laqab) ot, birlikda, I shaxsda. 5. O'sha kechasi Polvontog'a bilan dalaning o'zida yotib qoldik. Bu gapda bosh shakl polvon – sifat, tog'a – ot bilan bog'langan shaxsni bildiradi. Bosh kelishikda, birlikda, I shaxsda. O'zbek tili uslubiy vositalarga boy til hisoblanadi. Unda poetik sintaksis vositalari keng qo'llanilib, ular nutqning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Uslubiy vositalar nutqning ta'sirchanligini oshirishda, mazmundorligini ta'mindashda qo'shimcha biror vazifani bajaruvchi til elementlaridir. Uslubiy vositalar bajarib kelgan vazifa mohiyati nutqda namoyon bo'ladi. Bunday til vositalari, ayniqsa, badiiy nutq uslubida keng qo'llanilib, tilning boy imkoniyatlarini ko'rsatib berishga xizmat qiladi va uning estetik funksiyasini oshirishga katta yordam beradi. Shu sababli uslubiy vositalar badiiy tasvir vositalari deb ham yuritiladi, ba'zi adabiyotlarda poetik figuralar nomi bilan ham ataladi. X.To'xtaboyev asarlarining tili g'oyat jozibador, g'oyat chiroyli, g'oyat yoqimli tildir. Adibning hikoyalari, romanlari va hajviy asarlarini o'qir ekanmiz, ular bizni o'ziga rom etadi, hayajonlantiradi, badiiy zavq beradi. Buning asosiy sababi adibning o'z asarlarida turli uslubiy vositalardan o'rinli va mohirona foydalana olganligidadir.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

So'zlovchi o'z hissiyotlarini, emotsiyasini odatdagi tartibga sig'dira olmagan, odatdagi tuzilish uning sezgi va hissiyotlarini ifoda etish uchun kamday tuyulgan o'rinlarda miqdor oshiriladi, natijada takror yuzaga keladi. Takror nutqda yuqori emotsionallikni, me'yordan ortiq his-tuyg'uni ifodalashga xizmat qiladi. Nutq birliklarining takrorlanishi. So'z va uning grammatik qismlarini takror qo'llanishi, sintaktik butunliklarning qayta aynan qo'llanishi bunga misol bo'la oladi. Bunda shunday xulosa kelib chiqadiki, tilda takrorlar ma'lum sistemani tashkil etadi. X.To'xtaboyev o'z asarlarida takror va juft so'zlarga e'tiborni katta qaratgan. Bu esa asarlaridagi uslubiy bo'yoqdorlikni ta'minlagan. Masalan, Menga o'xshash esli-hushli, gapga tushunadigan bir yigitga juda-juda zoriqib o'tirgan ekan. – Yopirim-ey, yopirim-ey! – deb soqolini changallab, hangu mang bo'lib qoldi. Ehtimol, bechora oyijonim sochlarini yulib faryod chekayotgandir, dalamadala, qishloqma-qishloq bo'zlab meni axtarib yurgandir. To'yib-to'yib tuxum yutasan, kitoblaring chiqadi, surating gazetada bosiladi. Matnda bir so'zning qayta-qayta takrorlanishi o'sha so'z bilan bog'liq bo'lgan vaziyatning kuchaytirilgan holda ta'kidlanishiga xizmat qiladi. Adib antroponimlardan ham ustalik bilan foydalangan. Badiiy matndagi personajlarni nomlashning turli asoslari mavjud. Ular atobiografik tarixiy –madaniy, majoziy va hokazo bo'lishi mumkin, lekin deyarli har doim muallif personaj nomiga o'ziga xos ma'no yuklashga harakat qilishi tabiiydir. Muallif tomonidan qo'yilgan nomlarning asosiy vazifasi haqida so'z borar ekan, lingvistik tahlil orqali ismlarning semantik va ramziy ma'nolarini o'rganish talab etiladi. Yozuvchining "Sariq devni minib", "Sariq dening o'limi" romanlarida antroponimlarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Real tarixiy shaxs nomlari – Nikolay poshsho, Lenin, Stalin va hokazo. 2. Real – noekspressiv ism-shariflar – Oyshaxon, Sirojiddin, Orif, Hoshimjon, Mirobiddinxo'ja, Soraxon va hokazo. 3. Metonimik ma'no ifodalovchi nomlar – Ketmon , Oqpodsho,

Ideologiya, Adabiyot, Fizika, Kimyo, Geografiya va hokazo. 4. Sinekdoxa asosida ma'no tashuvchi nomlar – Ollako'z, Danak qori, Bodom qori, Yong'oq qori, Uzunquloq pirim va hokazo.

### XULOSA

Keltirilgan nomlar X.To'xtaboyev asarlaridagi nomlarning ayrimlarigina xolos. Bu nomlarning barchasini o'ziga xos ma'nolari bo'lib adib buni ajoyib tarzda tasvirlaydi. Masalan, Soy bo'yida turadigan qori pochcha juda-juda ham pakana, semirib dum-dumaloq bo'lib qolgan. Uzoqdan qarasangiz, xuddi Dononing yelim qo'g'irchog'iga o'xshab ko'rinadi. Odamlar uni Danak qori deb atashadi. Ko'rinadiki, bu gapda Danak qori ning bir qancha semalari mavjud. Uning implitsit (yashirin) ma'nosi har bir sohadagi pishiqligidir. Keltirilgan sinekdoxa asosida ma'no tashuvchi nomlarning nomlanish asoslari mavjud.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. To'xtaboyev X. Jonginam shartingni ayt. Qissa va hikoyalar. –T.: Yosh gvardiya, 1978.
2. To'xtaboyev X. Sariq devni minib. Uch qismli sarguzasht roman. – T.: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashryoti, 1977.
3. Sharafiddinov O. Botirlarning umri boqiy. Manba: Go'zallik izlab. –T.: G'. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashryoti, 1985.
4. Shermuhammedov P. Ezgulik hissini tarbiyalab... Manba: Barchadan yaxshiroq hayot guli... –T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashryoti, 1983.
5. D. Nu'Monova, U. Qo'Ziyev Badiiy matnning lingvostatistik tomondan tahlil qilish // Oriental Art and Culture. 2020. №1 (2). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-matnning-lingvostatistik-tomondan-tahlil-qilish> (дата обращения: 09.12.2022).
6. KUZIYEV U. About bases of classification of the words in composing new complanatory dictionaries //Scientific journal of the Fergana State University. – 2018. – T. 1. – №. 1. – С. 104-106.
7. Toshpolatov, Azamat Mehmonaliyevich. "A Pragmatic Study of the Ratio Category: Statement of the Problem." Texas Journal of Philology, Culture and History 8 (2022): 1-4.
8. Кузиев У. Я. About sociolects and their place in glossaries (in example Uzbek language and dictionaries) //Научные исследования: теория, методика и практика. – 2017. – С. 281-286.

## MODELS OF VIRTUAL LEARNING ENVIRONMENT IN TEACHING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE

**Kattaboyeva Muborak**  
*Termez state university*

**Abstract:** *The current article discusses diverse models of virtual learning environments in teaching languages as a foreign language. Different examples for these VLE models have been sorted out and analyzed according to various features and functions. It has been pointed out that modern pedagogical technologies emphasize the role of virtual learning environments and virtual language environments in teaching foreign languages, and even specific examples have been in turn discussed in terms of their various components.*

**Key words:** *information subject environment, innovative learning environment, integrated learning environment, virtual learning environment, information and educational environment, computer learning environment, information and educational space.*

### INTRODUCTION

Information and communication technologies (ICT) are being actively introduced into almost all spheres of human life, including science and education. They have a huge impact on the creation and development of educational systems of a new generation, which are based on student-centered problem-based learning and are aimed at enhancing the independent learning and cognitive activities of students.

New educational systems are built on the basis of a modular organization of the educational process, which includes a combination of pedagogical and information and communication technologies and involves the closest possible integration of full-time and distance learning.

Modern pedagogical technologies include such methods and forms of teaching as learning in cooperation at different stages of cognitive activity, brainstorming, virtual discussion, role-playing and business games of a problem orientation, situational analysis (case-science), project method (in particular, individual, pair, group project activity, educational telecommunication project), "student portfolio" (reflection / self-assessment, personal web pages of students) [1].

It seems that to the greatest extent these technologies are able to realize their educational potential in specialized educational information and communication environments for organizing distance forms of teaching a subject. It is these environments that are the basis of distance learning (DL) in any discipline. They are a kind of technical, technological, content and organizational model of a virtual environment for teaching a foreign language a "platform" that hosts various electronic educational, applied resources,